




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Özbək dilində ibrani adlari	
20	Rəxşanə BABAZADƏ, Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində məsdər	175
21	Aytəkin ZEYNALOVA, Özbəkistan və naxçıvan mətbəxində folklor elementləri	178
22	Nazmina ABDISAMETOVA, Qorabuloq shevasida qo‘llanadigan idish-tovoq va uy anjomlari nomi	180
23	Mohlaroyim IZZATOVA, Folklor adabiyotining milliy tafakkur taraqqiyotidagi o‘rni	183

2-sho‘ba. O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI

1	Samixon ASHIRBOYEV, 20-yillar matbuoti: Faxri Kamolning singarmonizm talqini 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/IYBD6338	187
2	Abdulhay SOBIROV, O‘zbek areal tilshunosligining shakllanish va rivojlanish bosqichlari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NDQE1005	191
3	Shukurjon NORBAYEVA, Xorazm shevalari leksikasida substrat asosli birliklar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/EMTE8289	195
4	Ibrohim DARVISHOV, Namangan qipchoq shevalarida sinonimlar 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/OKNB2844	200
5	Mo‘minjon TURDIBEKOV, Tojikistonda o‘zbek shevalarining o‘rganilishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/SDAQ1466	205
6	Murodqosim ABDIYEV, Salohiddin RAXMONOV, Chandir shevasining ba’zi grammatik xususiyatlari xususida (Pastdarg‘om tumani Chandir qishlog‘i misolida) 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/DHJ12368	209
7	Jo‘ra XUDOYBERDIYEV, Y.D.Polivanov va o‘zbek shevashunosligining ayrim masalalari	212
8	Alisher UBAYDULLAYEV, Qipchoq lahjasiga mansub ayrim qarindoshlik terminlarining lingvistik tahlili 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMZR8354	219
9	Navro‘z RAXMONOV, Qipchoq shevalarini o‘rganishning yangi bosqichi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/YMGU2063	223
10	Zoxira XIDRALIYEVA, Iqon shevasiniung o‘zbek adabiy tili va ayrim o‘zbek shevalariga munosabati	225
11	Baurjan SAYFULLAYEV, O‘zbek va qozoq til kontaktlari natijasida shakllangan toshkent qozoq shevasining lingvistik tahlili	228
12	Zilola TILLABAYEVA, Samarqand viloyati qarluq shevalarida o‘zlashma qatlam va bilingvizm masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/GKIU1258	236
13	Vaziraxon ALIMBEKOVA, Adabiy tildagi lakuna va sheva leksikasi munosabati	239
14	Muattarxon TURDIXO‘JAYEVA,	243

Y.D.POLIVANOV VA O'ZBEK SHEVASHUNOSLIGINING AYRIM MASALALARI

Y.D. POLIVANOV AND SOME ISSUES OF UZBEK LINGUISTICS

Jo'ra XUDOYBERDIYEV,

ToshDO'TAU katta o'qituvchisi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/LKIG4427

Annotation. *Hundreds of works have been written about Y.D. Polivanov to date. His contribution to Russian and world Turkology has been thoroughly analyzed. The scholar wrote about thirty works on issues such as the Uzbek language, Uzbek dialects, the dialects that should serve as the basis for the Uzbek literary language, the Uzbek alphabet, and orthography. These works have mostly been positively evaluated. For this reason, he is recognized as one of the founders of Uzbek linguistics and Uzbek dialectology.*

According to our observations, in a number of works on the Uzbek language created in the 1920s and the first half of the 1930s, Y.D. Polivanov attempted to develop a Marxist concept of language. More precisely, he promoted views aimed at the future merging of national languages.

Key words: *Uzbek dialectology, dialect, sinharmonism, Uzbek alphabet.*

Kirish

Y.D.Polivanov haqida hozirgacha yuzlab asarlar yaratilgan. Uning rus va jahon turkologiyasiga qo'shgan hissi atroflicha tahlil qilingan. Olim o'zbek tili, o'zbek shevalari, o'zbek adabiy tiliga asos bo'ladigan shevalar, o'zbek alifbosi, imlosi kabi masalalarga oid o'ttizga yaqin ishlarini yaratgan. Ushbu ishlar aksariyat holatlarda ijobiy baholangan. Shu bois u o'zbek tilshunosligining, o'zbek shevashunosligining asoschilaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Bizning kuzatishimiz bo'yicha, Y.D.Polivanov o'zbek tili yuzasidan 1920-yillar va 1930-yillarning birinchi yarmida yaratilgan bir qator asarlarida tilning marksistik kontseptsiyasini yaratishga harakat qilgan. Yanada aniqroq qilib aytganda, milliy tillarni kelajakda qo'shib ketishiga yo'naltirilgan qarashlarini ilgari surib kelgan.

Y.D.Polivanovning O'zbekistonga kelishdan olidingi qisqacha faoliyati haqida. Y.D.Polivanovning O'zbekistonga kelishdan olidingi faoliyati haqida A.A.Leontev shunday dalillar keltirgan: «Уже в период между Февралем и Октябрем Поливанов активно сотрудничает с большевиками, в частности печатается в горьковской легальной «Новой жизни», а при выборах в Учредительное собрание голосует по списку большевиков. В ноябре – декабре 1917 г. Он был не только одним из главных борцов с саботажем чиновников бывшего Министерства иностранных дел (Поливанов с сентября работал в нем заведующим отделом печати), но по существу именно ему принадлежит заслуга находки, расшифровки, перевода и публикации тайных договоров царского правительства. При создании Наркоминдела Поливанов вскоре стал заведующим восточным отделом и «уполномоченным народного комиссара по иностранным делам», т. е. заместителем наркома по Востоку. Согласно одному из документов, он в конце 1917 г. был в Петрограде председателем советской делегации по перемирию с Германией...

Работа Поливанова в Наркоминделе кончились в феврале 1918 г. Однако в те же месяцы ему поручается ответственнейшее дело – руководство политработой среди китайских рабочих (их в те годы было в Петрограде до 300 тыс.). в 1918 г. он был одним из организаторов «Союза китайских рабочих». Поливанов был редактором первой китайской коммунистической газеты, был связан с китайским Советом рабочих депутатов.

В том же 1919 г. Поливанов работал в политотделе Балтфлота и в политотделе 9-й армии. В 1919 г. его принимают в члены РКП(б)...

В 1921 г. Е.Д.Поливанов переехал в Москву, где стал помощником заведующего Дальневосточной секцией Коминтерна и одновременно преподавал в Коммунистическом университете трудящихся Востока (КУТВ). Осенью того же года (в августе) Коминтерн посылает его в командировку в Ташкент» [Леонтев. 1983. 10-11].

Y.D.Polivanov 1918-yil 21-fevral kuni Y.D.Polivanov imzosi Buxoro Jumhuriyatiga birinchi telegramma yuborilgan. Unda Xalq Komissarlari Soveti hokimiyatining rasmiy ravishda tan olinishi va zudlik bilan javob berilishi talab qilingan: “Прежде всего требуем публичного признания власти Совета Народных Комиссаров. Отвечайте немедленно” [Ларцев 1988: 48].

Ushbu ma’lumotlardan Y.D.Polivanovning chor va bolsheviklar hokimiyatida juda mas’ul lavozimlarda ishlaganligini bilib olish mumkin. 1917-yil noyabr-dekabr oylarida Tashqi ishlar vazirligida xizmat qilgan, sentabr oyidan u yerda nashriyot bo’limi boshlig’i lavozimiga o’tkazilgan. Chor hukumatining maxfiy shartnomalarini topish, shifrlash, tarjima qilish va nashr etish ishlariga jalb etilgan.

1918-yilda Petrogradda Xitoy kommunistik partiyasi bo’limi tashkilotchilaridan, birinchi «Китайский работник» Xitoy kommunistik gazetasining bosh muharriri sifatida faoliyat yuritgan. 1919-yilda u bolsheviklar partiyasi a’ziligiga qabul qilindi.

1921-yilning 6-maydagi arizasiga ko’ra, Y.D.Polivanov Moskvada Kominternning Uzoq Sharq bo’limi boshlig’ining o’rinbosari lavozimiga tayinlangan [Иванов root@gmail.com]. Ayni vaqtda Sharq mehnatkashlari kommunistik universitetida (KUTV) dars bergan. O’sha yilning kuzida (avgust) Komintern uni Toshkentga xizmat safariga jo’natgan.

Masalan, Kominternni oladigan bo’lsak, V.Lenin tashabbusi bilan 1919-yilda ochilgan, 1943-yilgacha faoliyat yuritgan. Xorijiy mamlakatlarda inqiloblarni tashkil etish, kommunistik internatsionalni targ’ib etib, yangi hokimiyatni o’rnatish bilan shug’ullangan. Y.D.Polivanov ana shu tashkilotning topshirig’i bilan Toshkentga xizmat safariga yuborilgan. Sharq mehnatkashlari kommunistik universiteti esa 1920-yillarda sharq xalqlari istedadli vakillaridan bolshevik kadrlarni tayyorlash maqsadida tashkil etilgan.

Stalin 1925-yilda ushbu universitet tashkil qilinganligining 5 yilligi munosabati bilan mazkur ta’lim muassasasining siyosiy hamda bolshevik kadrlar tayyorlashdagi muhim vazifalari to’g’risida ma’ruza qilib, milliy tillar, millatlarning kelgusida birlashib ketishi masalalariga ham alohida to’xtalib o’tgan. U milliy tillarni birlashib ketishi haqida shunday fikrlarini bildirgan: “Аgar so’z millatlarni yo’qsullar madaniyati bilan birlashtirish ustida ketib turg’on bo’lsa, bu birlashmak, u millatlarning til, turmushlarining usuliga muvofiq ijro bo’la borishig’a ham shubha yo’q.

... Bir necha millatlarning birlashmak harakatida yo’qolib ketmaklariga shubha yo’q. Bunday yo’llar avvalda ham bo’lib kelgan. Bir necha millatlarning birlashmak harakati boshqa millatlarni chiqarib tashlamaydir. Balki buning teskarisicha bir necha yuksalgan millatlarning birlashmak harakati yoki birlashmak harakatining boshlamalari millatlarni umumiy yuksalish harakatlarining natijalaridir” [Stalin 13].

I.Stalin milliy tillarning birlashtirilishi masalasiga keyingi ma’ruzalari, chiqishlarida ham alohida e’tibor berib kelgan. U “Миллий масала ва leninizm. Meshkov, Kovalchuk va boshqa o’rtoqlarga javob” nomli asarida millatlar va milliy tillarning yo’q bo’lib ketishi, umumiy tilning vujudga kelishi va butun jahon tili yaratilishining uch bosqichi haqida ma’lumot beradi. Har bir bosqichning bir-biridan farqi, o’ziga xos xususiyati haqida to’xtalib o’tadi. U yozadi:

“Butun dunyo proletariat diktaturasi davrining birinchi bosqichida millatlar va milliy tillar yo’q bo’lib keta boshlaydi, yagona umumiy til paydo bo’la boshlaydi, deb o’ylash xato bo’lar edi. Aksincha, birinchi bosqich ichida milliy zulum batamom yo’q qilinadi, – ilgari ezilgan millatlar va milliy tillarning o’sishi va gullashi bosqichi, millatlarning teng huquqliligi barqaror bo’ladigan

bosqich, millatlarning bir-biriga ishonmasliklarini yo'q qilish bosqichi, millatlar o'rtasida internatsional aloqalarni yo'lga qo'yish va mustahkamlash bosqichi bo'ladi!

Butun dunyo proletariat diktaturasi davrining faqat ikkinchi bosqichidagina, yagona jahon xo'jaligi, – jahon kapitalistik xo'jaligi o'rniga, – vujudga kela boshlashi bilan bir qatorda, faqat ana shu davrda umumiy tilga o'xshagan bir narsa vujudga kela boshlaydi, chunki faqat ana shu bosqichda millatlar o'z milliy tillari bilan bir qatorda millatlar o'rtasida bitta umumiy til, – munosabat qilish qulaylashsin uchun bir umumiy til bo'lishi kerakligini sezadilar. Demak, bu bosqichda milliy tillar bilan bir qatorda millatlar o'rtasida umumiy til ham bo'ladi. Ehtimolki, dastlab hamma millatlar uchun bitta umumiy tilga ega bo'lgan bitta umumiy butun jahon iqtisodiy markazi emas, balki millatlarning ayrim guruppalari uchun millatlarning har bir ayrim guruppasida ayrim umumiy til bo'lgan bir necha zonal iqtisodiy markaz tashkil qilinadi va shundan keyingina bu markazlar barcha millatlar uchun bitta umumiy tilga ega bo'lgan bitta umumjahon sotsialistik xo'jalik markazi bo'lib birlashadi.

Butun dunyo proletariat diktaturasi davrining undan keyingi bosqichida, butun jahon sotsialistik xo'jalik sistemasi yetarli darajada mustahkamlanib olib, sotsializm xalqlar hayotiga singganda, millatlar umumiy tilning milliy tillardan ko'ra afzalligiga o'z tajribasida ishonch hosil qilganda, – milliy farq va milliy tillar yo'q bo'lib keta boshlaydi va hamma uchun bir bo'lgan butun jahon tiliga o'rin bo'shatib beradi [Сталин 1951].

Ma'lum bo'lmoqdaki, Y.D.Polivanov yuqorida qayd etilgan muassasalarda fidoyilik bilan faoliyat yuritgan. U O'zbekistonga ana shunday faoliyatini davom ettirish uchun yuborilgan.

Y.D.Polivanovning O'zbekistondagi faoliyati. Olim ikki marta O'zbekistonda bo'lgan. Birinchi marta 1921-yilning kuzida Toshkentga kelib, 1926-yilgacha shu yerda qolgan. Turkiston ASSR Maorif xalq komissariatining darsliklar, dastur va metodik qo'llanmalar tayyorlaydigan Davlat ilmiy kengashi raisining o'rinbosari lavozimida ishlagan, o'zbek maktablari uchun rus tili [«Маяк». Русский букварь для нерусских детей Туркестана 1925], rus maktablari uchun o'zbek tilidan qo'llanma va darsliklar, o'zbek tili grammatikasini yozgan [Краткий очерк узбекской грамматики 1925]. Turkiston Sharq institutida, O'rta Osiyo davlat universitetining Tarix-filologiya fakultetida ma'ruzalar o'qigan. 1922-yilda «Наука и просвещение»ning 1-sonida toshkent shevasining tovush tarkibi, turk tili grammatikasi qurulishining tamoyillari, o'zbek tili imlosining islohiga oid tezislari [Поливанова 1922], e'lon qilingan. Y.D.Polivanov umumtilshunoslikning nazariy masalalari bilan shug'ullandi [К вопросу об обще-турецкой долготе гласных 1924], o'zbek sheva va dialektlarini maxsus o'rgandi [Образцы фонетических записей ташкентского диалекта 1924], o'zbek alifbosi va imlosini isloh etish jarayonida faol ishtirok etdi [Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. 1933], o'zbek tili uchun lotin alifbosi loyihasini ishlab chiqdi [1924], Toshkent tarixi, o'zbeklarning etnografiyasiga oid ishlarini e'lon qildi [1925].

Shuningdek Xorazm (1930), Pamir (1930), Sayram-Chimkent (1931), Farg'ona (1930), Chirchiq-Ohangaron (1932), Toshkent-Andijon-Norin-Namangan-Qo'qon (1932) ekspeditsiyalarida qatnashgan..

Olim hayotlik vaqtida e'lon qilingan asarlarining 29 tasi o'zbek tili va shevalari masalalariga bag'ishlangan.

Turk xalqlari tillardagi singarmonizm hodisasini chiqarishga bo'lgan harakatlar. 1926-yilda Bokuda bo'lib o'tgan Birinchi Butunittifoq turkologiya qurultoyida turkiy tillardagi singarmonizm masalasi muhokama etilgan. Ushbu masalani kun tartibiga qo'ygan B.Cho'ponzodaning fikrlariga turk xalqlari vakillari e'tiroz bildirishgan.

Qurultoyda imlo masalasi muhokamasida ishtirok etgan Tatariston vakili Olimjon Ibrohimov turkiy tillardagi barcha so'zlar qattiq yoki yumshoq bo'lishi, shu sababli imlo qoidalarini shakllantirishda barcha qo'shimchalarni shunga rioya qilib tuzish kerakligini bildirgan [Первый Всесоюзный тюркологический съезд 164-165]. Shuningdek Shokirjon Rahimiy

barcha turkiy tillar qatori o'zbek tilida ham singarmonizm mavjud ekanligi [165-166], B.Cho'ponzoda terminologiya tizimi haqida ma'ruza qilganda ham singarmonizm va agglyutinatsiya masalasiga to'xtalib, turk tillariga faqat agglyutinatsiya va singarmonizm nuqtai nazaridan qaramaslik zarurligi, mazkur qonuniyatlar arab va fors tillaridan o'zlashgan so'zlar hisobiga o'zgarishga ushrganligi, shu bois turk tillari to'liq singarmonizm va agglyutinatsiya qoidalariga amal qilmasligini aytib o'tgan [191].

B.Cho'ponzoda ushbu qarashlarini Butunittifoq yangi turk alifbosi markaziy qo'mitasining I plenumida ham davom ettirgan. B.Cho'ponzoda qozoq, qirg'iz va turkman tillariga yevropo tillaridan so'zlarning o'zlashtirilishi munosabati bilan singarmonizm tabiiy yo'l bilan yo'qola borishini bayon qilgan [109-110].

Olim shu fikrlaridan keyin singarmonizm turkiy tillarning umumiy qonuniyati emas degan qat'iy xulosani ham beradi: "Сингармонизм не общее тюрко-татарское явление" [110].

B.Cho'ponzodaning bir necha maqolalarida ham turk xalqlari tillaridan singarmonizmni chiqarish haqidagi qarashlari bayon etilgan.

Y.D.Polivanovning o'zbek adabiy tilidan singarmonizmni chiqarish, unli tovushlarni ifodalaydigan harflar sonini kamaytirishga qaratilgan harakatlari. O'zbek adabiy tili singarmonizm hodisasi bo'lmagan eroniylashgan shevalar asosida tuzilsin, degan fikrni dastlab Y.Polivanov ko'tarib chiqqan. U 1922-yilda Toshkent shevasida 6 unli tovush bo'lib, o'zbek adabiy tili uchun shu shevani asos qilib olish kerakligini e'lon qilgan [Поливанов 1922; 17-19]. Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi loyihasida ham unli tovushlarni ifodalash uchun 6 ta harfni ko'rsatgan [Поливанов 1924; 158-159]. U shu davrda o'tkazilgan qator anjumanlarda ham o'zbek alifbosida unli tovushlar uchun 6 ta belgi olish, o'zbek adabiy tilini singarmonizmsiz shevalar asosida shakllantirish zarur, degan qat'iy fikrda turgan.

1928-yilga kelib lotin alifbosini va lotin alifbosi asosidagi imlo qoidalarini singarmonizm asosida tuzish, alifboda 9 unli tovushni aks ettirish aniq bo'lib qoldi. Uzoq vaqt davom etgan qizg'in munozaralardan keyin mahalliy ziyolilarning aksariyati bu fikrni qo'llab-quvvatladi, ilmiy, amaliy jihatdan isbotlab ham berishdi. Y.Polivanov ham o'z fikridan qaytmadi. Qanday yo'l bilan bo'lmasin, o'zbek adabiy tili uchun singarmonizmsiz eroniylashgan shevalarni va alifboda unli tovushlarni ifodalash uchun 6 belgini asos qilib olish zarur, degan qarashni davom ettiraverdi: "Я говорю здесь звуковом составе литературного языка и имею на это основания: я утверждаю что литературный или стандартный диалектом узбекского языка является несингармонистический диалект, представленный в частности Ташкентским, Самаркандским и Ферганскими городскими говорами". Singarmonizm bo'lmagan sheva vakillari ham o'zbek tili tovush tizimida bu hodisa bor, deb turganliklaridan xafa bo'lib, ular orasiga fitna solmoqchi ham bo'ldi. Va bu masalaga 5, 10 yoki 20 yildan keyin albatta qaytilishini qat'iy ishonch bilan bildirdi [Поливанов 1928;].

Olim "O'zbek adabiy tili va o'zbek dialektologiyasi" nomli asarida Samarqand, Buxoro va boshqa o'zbek shevalari tojik tili ta'siri natijasida singarmonizmni yo'qotdi desa [Поливанов 1933], boshqa bir asarida eronlashgan dialektga savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi Toshkentga o'xshagan markaziy shahar shevalari kiradi, deydi-da, tojik tilining ta'sirida turkiy so'zlar o'z sofligini yo'qotdi, bu shevalar turkiy o'ziga xoslik bo'lgan singarmonizmdan mahrum bo'ldi, degan qarashni bayon qiladi [Поливанов 1926].

Y.Polivanovning aksariyat ishlarida Toshkent shevasi eronlashgan, deb talqin qilinadi va bu fikrini dalillash uchun toshkentlik o'zbeklarning kelib chiqishi tojiklarga borib taqalishini bildiradi. Ma'lumki, ilmda bu kabi hal qiluvchi muhim ahamiyatga ega qarashlar tarixiy, ilmiy manbalardagi aniq va ishonchli dalillar bilan tasdiqlanadi. Y.Polivanov esa bu fikrini biror tarixiy manba bilan asoslamaydi, biror asardan dalil keltirmaydi. U yozadi:

"... предки данного узбекского говора говорили несколько столетий тому назад по-ирански, относятся отнюдь не ко всему узбекскому языку, а только к таким иранизованным

его говорам, как г. Ташкенте, относительно которого можно по этому с бесспорностью утверждать, что здесь жило некогда сплошное иранское (таджикское, т. е. восточно-персидское) население, которое потом перешло на турецкий (узбекский) язык, язык победителей” [Поливанов 1926; 19].

Olim Toshkent soʻzining kelib chiqishi haqida alohida maqola yozib, bu soʻz etimologiyasini “таж(и)-кент” shaklida talqin qildi [Поливанов 1927].

Oʻsha kezlarda H.Polivanov fikrlarini qoʻllab-quvvatlovchilar, uni himoya qiluvchilar ham boʻlgan. Masalan, K.K.Yudaxin “Maorif va oʻqituvchi” jurnalidagi “Vodil qishlogʻi lahjasi haqida bir necha soʻz” nomli maqolasida mahalliy mutaxassislarining Y.Polivanov qarashlariga bildirayotgan munosabatlarini “tushunib boʻlmaydigan munosabat”, deb baholaydi: “Mashhur oʻzbek tilchilaridan baʼzilari profisoʻr Polivanifgʻa allaqanday tushunib boʻlmaydigʻan munosabat tutadilar. Bunga misol qilib Gʻ.Olimning “Oʻzbek tilining tovishlari” (“Maorif va oʻqitgʻuvchi”, 1927, № 12) maqolasi “Singarmoʻnizmiy”ning “Yana til-imlo masalasi ustida” (“Qizil Oʻzbekiston”, 1928, 15.11.) maqolasidagʻi chiqishlarni olish mumkin” [Yudaxin 1928; 48].

K.K.Yudaxin 1920-yillarning oxiridayoq Y.Polivanov qarashlarini toʻla qoʻllab-quvvatlab chiqdi, oʻzbek xalqi yashab turgan hudud asli eroniylarniki boʻlganligi, turklar bu hududni bosib olganlaridan keyin eroniylarning madaniyatini qabul qilib, ularga oʻz tillarini berganliklari haqida shunday yozadi:

“Из истории мы знаем, что территория занимаемая ныне узбеками, прежде была населена иранцами. Известно также и то, что турки – завоеватели, смешиваясь в завоеванных местах с иранцами и воспринимая их культуру, часто давали им свой язык. Но как турецкая культура сдавала свои позиции не сразу, оставляя след на местной иранской, так и иранский язык, уступая свое место турецкому, в свою очередь, влиял на него” [Юдахин 1929; 62-63].

Olim Alisher Navoiy, Amiriy, Lutfiy kabi shoirlarning asarlari hamda Muhammad Solihning “Shayboniynoma” masnaviysidan olingan misollarni tahlil qilib, qayd etilgan adiblar singarmonizmsiz sheva vakillari boʻlganliklari, ularning tillarida 6 unli tovush boʻlgani haqida xulosa beradi va Y.Polivanov ilgari surayotgan fikrlar toʻgʻriligini isbotlagandek boʻldi: “Изложенный факты приводят меня к тому предположению, что важнейшие поэты были представителями говоров несингармонистических, в которых насчитывалось только шесть гласных” ” [Юдахин 1929; 67].

Y.D.Polivanov fikrlarining inkor etilishi. 20-yillarning oxiri – 30-yillarning boshlarida Y.Polivanovning oʻzbek tilidagi singarmonizm hodisasi va unlilarning soni, oʻzbek adabiy tili uchun asos boʻladigan shevalarni belgilash toʻgʻrisidagi qarashlarini mahalliy aholi vakillari qoʻllab-quvvatlamagan. Bu haqda Abdulla Alaviy “Profisoʻr Polivanif tarafidan olgʻa surilgan bu fikrni yolgʻiz ovropoli mustashiriqlarning bir qismida oʻziga tarafdor topgan boʻlsa-da, oʻzbeklar orasida buni yoʻqlovchi boʻlmadi” deb yozgan edi [Alaviy 1929; 20].

Gʻozi Olim Y.Polivanov toshkent shevasini yaxshi bilmasligi, bu sheva unlilari haqidagi qarashlari notoʻgʻri ekanligini qayd etgan: “Profisoʻr Polivanif toshkent shevasida oʻrta alif oʻrnida har vaqt qalin alifli ishlatadi. Holbuki, toshkent shevasida qalin alifli soʻz bir necha yuzga yetmadigi holda, oʻrta alif hokim bir oʻrun tatadi. Profisoʻr Polivanif toshkent shevasini juda oz bilganligi orqasida boʻlsa kerak bu shevaning soʻzlari toʻgʻrisida koʻb yanglishadiki, bu yonglishlar toʻgʻrisida toʻgʻri kelganda yozarmiz” [Gʻozi Olm 1927; 50].

Yigirmanchi, oʻttizinchi yillarda oʻzbek tili, alifbosi, imlosiga oid qator maqolalar eʼlon qilgan Elbek ham Y.Polivanov qarashlariga oʻz munosabatini bildirgan: “Albatta, bu holgʻa baho berish yo magʻrurlik, yo ochchiq bilan otilgʻan toshdan boʻlak narsa emasdir. Soʻzimga dalil qilib pirafisoʻr Polivanifning 28 nchi yil, 22 nchi oʻktabr tarixli 244 nchi sonli “Pravda Vostoʻk” gazetasida “Невозможно молчать” sarlavhasi ostida bosilgʻon maqolasini koʻrsatsam boʻladir.

Bunda Polivanif o'rtoq alla qaydan turib musht ko'taradir, o'z fikriga qarshi chiqqanlarni "nodon" deb so'kadir, o'zining chiday olmog'onin yuqoridagi sarlavha bilan bildiradir...

Yana shuni ham ayta: sizning Toshkent, Samarqand shevalari ustidagi tekshirishingiz va "olti cho'zg'ili toshkent shevasi"ni umum o'zbeklar uchun o'rtoq adabiy til ravishida kiritishga urinishingiz behuda. Chunki, sizning o'ylag'oningiz toshkent shevasida 6 emas, 9 cho'zg'i tugal-to'kis bordir. Buni Toshkent til bilarmonlari allaqachon tekshirib bilganlar. Ammo samarqand shevasiga kelsak, buni siz "eronlashg'on" sheva deb yuritasiz. Holbukim, bu eronlashg'on sheva emas, balki to'g'ridan-to'g'ri forsiy tilning buzilg'oni bo'lib, uning o'zbek tiliga sira bog'lanishi yo'qdir" [Elbek 1929].

A.K.Borovkov "eronlashish" nazariyasining tarafdorlari o'ylab topilgan sxemalarini tiqishtirgani, hatto, Y.Polivanov tomonidan Toshkent so'zining "тож(и)кент" tarzda etimologiya qilinishi [Поливанов 395-400] tarixiy jihatdan ham, lingvistik jihatdan ham mavjud emas, deb bildi: "Защитники теории «иранизации» всячески подгоняли под надуманную схему явления языка, строили надуманные этимологии, напр., проф. Е.Д.Поливанов в угоду своей схеме выводил название Ташкента из таж(и)-кент, т. е. «таж(и//к)ское селение», хотя исторических и лингвистических оснований для такой этимологии нет и т.д." [Поливанов 395-400].

XI yuzyillikda yaratilgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridagi dalillar A.K.Borovkov maqolasida urg'ulab o'tilganidek, ma'lumotlar o'ylab topilgani, ajdodlarimiz yashagan ulkan hududdagi shaharlar asosan turkiy xalqlar tomonidan bunyod etilganini, ularga forsiy tilda gaplashadigan aholi keyin ko'chib kelganligini dalillamoqda. Mahmud Koshg'ariy "qaz" so'ziga izoh berganda ko'plab shaharlar turklar tomonidan qurilganini aytib o'tadi: "Qaz - Afrosiyob qizining nomi. Qazvin shahrini shu qurgandir. Bu so'zning asli qaz ojni - g'oz o'ynaladigan joy demakdir. Chunki u shu yerda turar va shu yerda o'ynar edi. Shuning uchun ba'zi turklar Qazvinni turk shaharlaridan hisoblaganlar. Shuningdek, Qum shahri ham chegara hisoblanadi. Chunki qum turkcha so'zdir. Afrosiyobning qizi bu yerda ov qilar va o'ynar edi. Ba'zilar turk shaharlari chegarasi Marvash-Shohijondan boshlanishini so'zlaydilar. Chunki Qazning otasi To'nga Alp Er - Afrosiyobdir. U Tahmurasdan uch yuz yil keyin Marvni bino qilgandir.

Ba'zilar butun Movarounnahrni turklar o'lkalaridan deb hisoblaganlar. U Jankanddan boshlanadi. Uning bir oti Dizruijindir. U sariqligiga ko'ra, mis shahri demakdir. Bu Buxoroga yaqindir... Butun Movarounnahr, Jankanddan Sharqqacha bo'lgan o'lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, Samarqand, Semizkand, Tashkand - Shosh, O'zkand, Tunkand nomlarining hammasi turkchadir. känd turksha shahar demakdir. Ular bu shaharlarni qurdilar va shunday nom qo'ydilar. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko'paygach, so'ng ular Ajam shaharlari kabi bo'lgan. Hozir turk o'lkalarining chegarasi Abisgun dengizi bilan o'ralgan. Rum o'lkasidan va O'zkanddan Chingacha co'ziladi. Uzunligi besh ming farsax, eni uch ming farsax, hammasi sakkiz ming farsaxdir" [Махмуд Кошғарий 1963; 163-164].

Mahmud Koshg'ariy lug'atida Toshkent so'zining etimologiyasi ham berilgan. U "Tarkan" so'zining izohida "Tarkan - Shosh [Toshkent]ning ismi. Uning asli Tash kand bo'lib, toshdan qurilgan shahar demakdir. Abu Bakri Qaffol Shoshiy shu shahardandir", degan ma'lumotni keltirgan [Махмуд Кошғарий 1963; 160].

Demak, Mahmud Koshg'ariyning guvohlik berishicha, butun Movarounnahr, Yankanddan Sharqqacha yastalgan o'lkalardagi shaharlar, asosan, turk shaharlari bo'lgan. Semizkand, Tashkand - Shosh, O'zkand, Tunkand kabi katta shaharlarning nomi ham turkcha. Turklar bu shaharlarni qurib shunday nom qo'yganlar. Bu yerlarga forslar keyinshalik kelishgan, ular ko'paygach bular ajam shaharlari kabi bo'lgan.

Mahmud Koshg'ariy keltirgan dalillar bilan birga, mintaqada, xususan yurtimiz hududidagi arxeologik qazishma ishlari, tangashunoslik bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, yurtimizning turli

manzillaridan topilgan qadimgi turk yozuvida bitilgan yodgorliklarining topilishi va tadqiqi natijalari ham ushbu hududda ajdodlarimiz qadimdan yashab kelganligini inkor qilib bo'lmaydigan dalillar sanaladi.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan dalillarga asoslanib quyidagicha xulosaga keldik.

1. Y.D.Polivanov o'zbek shevashunosligining asoschisi emas. U o'zbek sovet shevashunosligining shakllanishiga katta hissa qo'shgan sovet olimi.

2. Y.D.Polivanov tomonidan ilgari surilgan "eroniylashgan o'zbek shavalari" tushunchasi sun'iy ravishda o'ylab topilgan. Jahon tilshunosligida, shevashunosligida, jumladan turk xalqlari shevashunosligida bunday tushuncha, termin mutlaqo uchramaydi. Aslida shunday tushuncha ostida berilgan aholi tojik millatiga mansub kishilar bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Поливанов Е. Невозможно молчать // Правда Востока, – Ташкент, 1928, 22 октябрь.
2. Поливанов Е. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент, 1933. – С. 18.
3. Поливанов Е. Этнографическая характеристика узбеков, вып I. Происхождение и наименование узбеков, – Ташкент, 1926. – С. 31.
4. Поливанов Е. Этнографическая характеристика узбеков... – С. 19.
5. Поливанов Е. О происхождение названия Ташкента. В.В.Бартольд туркестанские друзья, ученики и почитатели. – Ташкент, 1927, – С. 395-400.
6. Yudaxin K. Vodil qishlog'i lahjasi haqida bir necha so'z // Maorif va o'qitg'uvchi. – Tashkent. 1928. № 7. – B. 48.
8. Юдахин К. Материалы к вопросу о звуковом составе чагатайского языка // Культура и письменность Востока. Книга IV. – Баку: В.Ц.К. Н.Т.А., 1929. – С. 62-63.
9. Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк), I, таржимон ва нашрга тайёрловчи. С.М. Муталлибов. – Тошкент, 1960. – Б 414.
10. Alaviy A. Til-imlo sohasida // Maorif va o'qitg'uvchi. 1929, – № 6. – B. 20.
11. Elbek. Til-implomiz ustida // Qizil O'zbekiston. 1929-yil 29-yanvar.
12. Боровков А. По поводу теории иранизации узбекского языка // Известия академии наук УзССР. 1955. № 8. – С. 91.
13. Стенографический отчет первого пленума Всесоюзного центрального комитета нового тюркского алфавита... – С. 109-110.